



MATEMATIKA DARSLARIDA OG'IZAKI HISOBLASHNI O'STIRISH MASHG'ULOTLARINI TASHKIL QILISH VA OG'IZAKI VA YOZMA HISOBLASH USULLARINING AHAMIYATI

Ne'matjonova Zarnigor Yo'ldashali qizi

Farg'ona Davlat Universiteti

1-bosqich talabasi

+998907791626

Zarnigorim1613@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17750670>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 20-noyabr 2025 yil

Ma'qullandi: 24-noyabr 2025 yil

Nashr qilindi: 28-noyabr 2025 yil

KEYWORDS

og'izaki hisoblash, yozma hisoblash, matematik tafakkur, mantiqiy fikrlash, didaktik tamoyillar, boshlang'ich ta'lim, hisoblash malakalari, interfaol metodlar, mashg'ulotlarni tashkil qilish, dars samaradorligi..

ABSTRACT

Ushbu maqolada matematika darslarida o'quvchilarning og'izaki hisoblash malakasini shakllantirish va rivojlantirish jarayonining nazariy hamda amaliy jihatlarini yoritiladi. Bugungi ta'lim jarayonida og'izaki va yozma hisoblash usullarini uyg'un qo'llash nafaqat o'quvchilarning matematik tafakkurini boyitadi, balki ularning mantiqiy fikrlashi, diqqatni jamlash, tezkor qaror qabul qilish kabi ko'nikmalarini mustahkamlaydi. Maqolada og'izaki hisoblash mashg'ulotlarini samarali tashkil qilish shakllari, mashqlar tizimini tuzish tamoyillari hamda dars jarayonida qo'llash mumkin bo'lgan interfaol yondashuvlar tahlil etilgan. Shuningdek, og'izaki va yozma hisoblash usullarining o'zaro farqlari, ularning o'quvchi rivojiga ta'siri va zamonaviy ta'limda tutgan o'rni misollar asosida ochib beriladi. Tadqiqot davomida boshlang'ich sinf o'quvchilarining yosh xususiyatlari, matematik bilimlarni bosqichma-bosqich egallashi hamda mashg'ulotlarni tashkil etishda metodik yondashuvlarning ahamiyati alohida e'tiborga olingan. Maqola natijalari og'izaki hisoblashni rivojlantirish dars samaradorligini oshirishi, o'quvchilar faolligini kuchaytirishi va matematikaga qiziqishni yanada orttirishini ko'rsatadi.

Bugungi globallashuv davrida ta'lim jarayoniga qo'yilayotgan talablar tobora ortib bormoqda. Ayniqsa, boshlang'ich sinflarda matematika fanini o'qitish jarayonida o'quvchilarning fikrlash tezligi, mantiqiy mulohaza yurita olish qobiliyati, mustaqil qaror chiqarish ko'nikmasi va amaliy hisoblash malakasini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shunday ko'nikmalar ichida og'izaki hisoblash alohida o'rin tutadi, chunki u o'quvchilarning kundalik hayotiy vaziyatlarda tez va aniq hisob-kitob qila olishini, masalalarga tezkor yondashuvni va matematik tafakkurni rivojlantiradi.

Matematika darslarida og'izaki va yozma hisoblash usullarining uyg'un qo'llanilishi o'quvchilarni faollikka undab, ularni dars jarayonining bevosita ishtirokchisiga aylantiradi. Og'izaki hisoblash tezlik va aniqlikni talab qilsa, yozma hisoblash jarayonning asosiy bosqichlarini, tartib va ketma-ketlikni chuqur o'zlashtirishga xizmat qiladi. Har ikki usul bir-birini to'ldirib, o'quvchilarda mustahkam

matematik bilimlar tizimini shakllantiradi. Shu bois, zamonaviy darslarda og'izaki hisoblashni rivojlantirishga qaratilgan mashg'ulotlar, o'yinlar, interfaol metodlar va kichik testlardan samarali foydalanish ta'lim sifatini sezilarli darajada oshiradi.

Boshlang'ich yoshdagi o'quvchilar uchun matematik bilimlarni o'zlashtirish faqat nazariy tushunchalar bilan cheklanmaydi. Ularning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda tezkor, qiziqarli va izchil mashg'ulotlarni tashkil etish o'qituvchidan yuqori pedagogik mahoratni talab qiladi. Bu jarayonda og'izaki hisoblash mashqlari bolaning intellektual rivojiga, eslab qolish qobiliyatining kuchayishiga, diqqatni tez jamlashga va fikrni bir nuqtaga qaratishga yordam beradi. Natijada o'quvchi nafaqat arifmetik amallarni bajarishni o'rganadi, balki ularning mazmunini chuqurroq anglab, kundalik hayotda qo'llay olish malakasiga ega bo'ladi. Shu nuqtai nazardan ushbu maqola matematika darslarida og'izaki hisoblash mashg'ulotlarini samarali tashkil etish, ularni o'quv jarayoniga maqsadli integratsiya qilish va og'izaki hamda yozma hisoblash usullarining o'zaro ahamiyatini tahlil qilishga bag'ishlanadi. Mazkur tadqiqot boshlang'ich sinf o'quvchilarining matematik tayyorgarligini mustahkamlash, dars samaradorligini oshirish va o'qitish metodikasini yanada takomillashtirishga xizmat qiladi. Zamonaviy ta'lim tizimida o'quvchining faolligi va mustaqil fikrlashi markaziy o'ringa qo'yilayotgan bir paytda, matematika darslarida hisoblash ko'nikmalarini rivojlantirishga yangicha yondashuvlar talab etilmoqda. Ayniqsa, og'zaki hisoblash mashg'ulotlarini muntazam tashkil etish o'quvchilarda hisoblash tezligini oshirish, murakkab vaziyatlarda yechim topa olish, moslashuvchan fikrlashni shakllantirish kabi jihatlarida muhim ahamiyatga ega.

Og'zaki bajarilgan har bir amal o'quvchining diqqatini faollashtirib, unda raqamlar o'rtasidagi bog'liqlikni ko'ra olish qobiliyatini mustahkamlaydi. Shuningdek, dars jarayonida og'zaki hisoblashni rivojlantirish o'quvchilarning matematik jarayonga nisbatan qiziqishini oshiradi. Turli darajadagi mashqlar, tezkor savol-javoblar, o'yin shaklidagi topshiriqlar va kichik musobaqalar orqali o'quvchining fikrlashi faollashadi, raqamlar bilan muloqot qilish osonlashadi. Bu esa bosqichma-bosqich murakkab hisoblash jarayonlarini o'zlashtirishga mustahkam zamin yaratadi.

Yozma hisoblash esa o'quvchini tartibli fikrlashga, har bir amal ketma-ketligini izchil bajarishga o'rgatadi. Yozma ishlash jarayoni o'quvchiga hisoblashda sodir bo'lishi mumkin bo'lgan xatolarni anglash va ularni bartaraf etish ko'nikmasini shakllantiradi. Shu sababli, og'zaki va yozma hisoblash jarayonlarini birgalikda qo'llash o'quvchilar bilimini chuqurlashtirishda eng samarali metodlardan biri sifatida qaraladi. Mavzuning dolzarbligi shundaki, aksariyat o'quvchilar arifmetik amallarni bajarishda faqat yozma shaklga tayanib qoladilar, bu esa ularning tezkor fikrlash qobiliyatiga ta'sir ko'rsatadi. Shu bois, darslarni rejalashtirishda og'zaki mashqlarni tizimli qo'llash, ularni o'quv jarayonining ajralmas qismiga aylantirish zarur. O'qituvchining maqsadga yo'naltirilgan metodik yondashuvi natijasida o'quvchilarda nafaqat tez hisoblash, balki masalalarni tushunib yechish, o'z fikrini aniq ifodalash, mantiqiy asoslash kabi muhim ko'nikmalar shakllanadi. Mazkur maqolada aynan shu yo'nalishdagi samarali metodlar, dars jarayonida qo'llanilishi mumkin bo'lgan amaliy topshiriqlar, mashg'ulotlarni tashkil etish mexanizmlari va ularning o'quvchi rivojiga ta'siri batafsil tahlil qilinadi. Ta'lim sifatini oshirishda og'zaki va yozma hisoblashning o'zni keng yoritilib, boshlang'ich sinflar uchun eng maqbul yondashuvlar ko'rsatib o'tiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdullayev, J., & Xodjayeva, N. Boshlang'ich ta'limda matematika o'qitish metodikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2019.
2. Ahmedov, M. Matematika o'qitish nazariyasi va metodikasi. – Toshkent: Innovatsiya-Ziyo, 2021.
3. Yuldashev, M., & Jamoliddinova, D. Boshlang'ich sinflarda matematika darslarini tashkil etish. – Toshkent: Ziyonur, 2020.